

ILMIY TADQIQOTDA RATSIOANLLIK VA IRRATSIONALLIKNING O'RNI

Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich

Namangan davlat pedagogika instituti
Falsafiy va tarixiy fanlar kafedrası dotsenti

Abdullajonova Dilrabo Hayrullo qizi

Namangan davlat pedagogika instituti
Pedagogika nazariyasi va tarixi 1-bosqich magistri

abdullajonovadilrabo@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20562781>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ratsionallik va irratsionallik tushunchalarining ilmiy tadqiqot jarayonidagi mazmun-mohiyati, bog'liqligi hamda ilmiy bilimlarni rivojlantirishdagi chuqur mohiyati yoritilgan. Yana qo'shimcha qilib ilmoy tafakkurda irratsional omillarning o'rni nilan bir qatorda mantiqiy fikrlash, intuitsiya hamda ijodkorlikning o'rni tahlil qilinadi. Bu maqolada ratsionallik va irratsional fikrlashning dolzarbligi va bu orqali ilmiy ishda ulkan yangiliklarni ochib berish mumkunligi isbotlab beriladi.

Kalit so'zlar: ilmiy tadqiqot, ratsionallik, irratsionallik, ilmiy tafakkur, intuitsiya, ijodkorlik, mantiqiy fikrlash, ilmiy bilish.

Abstract: This article examines the essence of the concepts of rationality and irrationality in the process of scientific research, their interrelation, and their significance in the development of scientific knowledge. In addition, the role of irrational factors in scientific thinking, along with logical reasoning, intuition, and creativity, is analyzed. The article substantiates the relevance of rational and irrational thinking and proves that they can contribute to achieving major innovations and discoveries in scientific activity.

Keywords: scientific research, rationality, irrationality, scientific thinking, intuition, creativity, logical reasoning, scientific cognition.

Аннотация: В данной статье раскрываются сущность понятий рациональности и иррациональности в процессе научного исследования, их взаимосвязь, а также значение в развитии научного знания. Кроме того, анализируется роль иррациональных факторов в научном мышлении наряду с логическим мышлением, интуицией и творчеством. В статье обосновывается актуальность рационального и иррационального мышления, а также доказывается, что они способствуют достижению значительных инноваций и открытий в научной деятельности.

Ключевые слова: научное исследование, рациональность, иррациональность, научное мышление, интуиция, творчество, логическое мышление, научное познание.

Kirish

Insoniyat taraqqiyotida ilmiy tadqiqot asosiy omillardan biri hisoblanadi. Har qanday ilmiy izlanish o'ziga xos metodologiya, nazariy asos va mantiqiy tahlilga tayanga holda amalga oshiriladi. Shu tarafdin ratsionallik ilmiy tadqiqotning asosiy bir yirik bo'g'ini hisoblanadi. Ammo tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak ko'plab yirik kashfiyotlar faqat mantiqiy fiklash bilangina emas, balki tasaffur, intuitsiya hamda ijodiy yondashuv natijasida dunyo yuziga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Bu albatta ilmiy tadqiqotda irratsionallikning ham o'ri juda ham muhimligini ko'rsatadi.

Bugungi innovatsiyalar davrida ratsional va irratsional omillarning o'zaro ta'sirini tahlil qila olish hamda ilmiy bilish jarayonini chuqur anglash dolzarb masalalardan biridir.

Adabiyotlar tahlili va metodlari

Ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik masalasi falsfa, metodologiya va ilmiy bilish nazariyasida muhim o'rin egallaydi. Ushbu mavzu yuzasidan ko'plab olimlar tomonidan ilmiy qarashlar ilgari surilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel ilmiy tafakkurda mantiqiylik va ratsional fikrlashning asoslarini yaratgan. U bilish jarayonida dalillik va izchil fikrlash

muhumligini ta'kidlagan. Uning mantiqiy qonunlari keyingi ilmiy tadqiqot metodologiyasining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Yangi davr falsafasida Rene Deskartes ratsionalizm nazariyasini rivojlantirib, ilmiy bilishda aql va mantiqning ustuvorligini asoslab bergan. Olimning fikricha, haqiqiy bilim aniq va ravshan fikrlash orqali hosil bo'ladi.

Zamonaviy ilmiy metodologiyada Karl Poppening falsifikatsiya nazariyasi muhim o'rin tutadi. Olim ilmiy nazariyalar doimo tekshirilishi va inkor etilishi mumkunligini qayd etgan. Bu qarsh ratsional tafakkurning tanqidiy xarakterini ochib beradi.

Mahalliy olimlar tomonidan ham ilmiy bilish, ratsional tafakkur va metodologiya masalalari o'rganilgan. Xususan, O'zbekistonlik faylasuf va pedagog olimlarning ilmiy tadqiqot metodologiyasiga oid ishlari ratsional yondashuvning nazariy asoslarini ochib beradi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

1. Tahlil va sintez metodi: ushbu metod orqali ratsionallik va irratsionallik tushunchalarining mohiyati alohida o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi umumlashtirildi.
2. Tarixiy-qiyosiy metod: ilmiy tafakkurning tarixiy rivojlanishi va turli olimlarning qarashlari qiyosiy tarzda tahlil qilindi.
3. Mantiqiy tahlil metodi: ratsional tafakkurning asosiy xususiyatlari- obyektivlik, mantiqiylik, izchillik, dalillilik va tizimlilik ilmiy jihatdan tahlil etildi.
4. Falsafiy metodologik yondashuv- ilmiy tadqiqotning nazariy asoslari yoritishda falsafaning bilish nazariyasi va metodologik tamoyillaridan foydalanildi.

Xulosa, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik bir birini to'ldiruvchi omillar hisoblanadi. Ratsional yondashuv ilmiy bilimlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlasa, irratsional tafakkur yangi g'oya va innovatsiyalar yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Tadqiqot metodlari esa mazkur masalani chuqur va tizimli o'rganishga imkon yaratadi.

Natijalar va muhokama

Ratsionallik lotincha soʻz boʻlib “ratio” – “aql”, “mantiq” degan maʼnoni anglatadi. U ilmiy tadqiqotda voqelikni mantiqiy asosda tushuntirish, dalillarga asoslangan holda aniq xulosa chiqarish va nazariyalarni isbotlash jarayonini ifodalaydi. Ratsional yondashuv xususiyatlari bilan tanishib chiqamiz:

Obyektivlik – bu ratsional tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Obyektivlik deganda voqea-hodisa, jarayon yoki ilmiy muammoni shaxsiy hissiyot, subyektiv qarash va manfaatlardan holi holda, haqiqiy holatda baholash tushuniladi. Bunda tadqiqotchining faqat aniq dalillar, kuzatish va isbotlarga tayanga holda xulosa chiqarishni anglatadi. Bu degani olim oʻzining shaxsiy fikri yoki hissiyotlariga emas, balki faktlarga asoslanishi kerak.

Masalan, Galileo Galileo osmon jismlarini kuzatishda diniy yoki shaxsiy qarashlardan emas, teleskop orqali olingan aniq kuzatuvlardan foydalangan. Bu ilmiy obyektivlikka yorqin misol boʻla oladi.

Mantiqiylik – bunda fikrlarni asosli, izchil va tartibli ravishda bayon qilinishi tushuniladi. Mantiqiylik insonning voqea va hodisalarni aql orqali tahlil qilishi, sabab va oqibat bogʻlanishlarini aniqlashi va toʻgʻri xulosa chiqarilishini taʼminlaydi. Shuning uchun ratsional tafakkur mantiqiy fikrlashsiz mavjud boʻla olmaydi.

Masalan, Aristotel mantiq fanining asoschilaridan biri sifatida fikrlash qonuniyatlarini ishlab chiqqan. Uning qarashlari ilmiy tafakkur rivojiga ulkan taʼsir koʻrsatgan.

Izchillik – bu degani fikr, gʻoya va xulosalarning bir-biri bilan uzviy bogʻlangan holda ketma-ket rivojlanishi tushuniladi. Ilmiy tadqiqotda har bir fikr oldingi fikrning davomi boʻlib xizmat qiladi va umumiy maqsadga yoʻnaltiriladi.

Dalillilik-har qanday gʻoya, fikr yoki ilmiy xulosaning aniq faktlar, isbotlar va asoslar orqali tasdiqlanishi tushuniladi. Ilmiy tadqiqotda hech bir fikr asossiz yoki shunchaki taxmin sifatida qabul qilinmaydi. Har bir xulosa dalillar bilan mustahkamlanishi kerak.

Tizimlilik-bunda ilmiy bilimlar, fikrlar va tadqiqot jarayonining o'zaro bog'langan yagona tizim asosida tashkil etilishi tushuniladi. Ya'ni tadqiqotning barcha qismlari bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, tadqiqotning barcha qismlari yagona ilmiy tizimni tashkil etadi.

Maqsadga yo'naltirilganlik- bu tushuncha inson faoliyati, fikrlashi va ilmiy tadqiqotning aniq maqsad asosida tashkil etilishini anglatadi. Ya'ni har qanday ratsional faoliyat oldindan belgilangan natijafa erishishga qaratiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda ratsionallik eksperiment, kuzatish, tahlil va sintez kabi metodlar orqali namoyon bo'ladi. Olimlar muammoni o'rganishda faktlarga asoslanib, ilmiy metodologiyadan foydalanadilar. Aynan ratsioanalyondashuv ilmiy bilimlarning ishonchliligini va aniqliligini ta'minlaydi.

Irratsionallik- inson tafakkurining mantiqiy izoh bilan to'liq tushuntirib bo'lmaydigan jihatidir. U ko'proq sezgi, intuitsiya, ilhom, tasavvur va ijodkorlik bilan bog'liq bo'ladi. Ayrim hollarda inson yangi g'oyani ildindan aniq isbotlarsiz his etadi yoki sezadi.

Ilm -fan tarixida ko'plab buyuk kashfiyotlar irratsional omillar ta'sirida yuzaga kelgan. Masalan, Albert Enshiteyn nisbiylik nazariyasini yaratishda tasavvur va fikriy tajribalardan foydalangan. Dmitriy Mendeleyev esa kimyoviy elementlar davriy jadvalining tuzilishini tush orqali tasavvur qilgani haqida ma'lumotlar mavjud.

Bu misollar ilmiy ijod jarayonida intuitsiya va irratsional tafakkurning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Ratsionallik va irratsionallik o'zaro bog'liq hodisa, ilmiy tadqiqot jarayonida ratsionallik va irratsionallik bir-birini inkor etmaydi; aksincha o'zaro to'ldiradi. Ratsional tafakkur ilmiy g'oyakarni tekshirish, asoslash va tizimlashtirishga xizmat qilsa, irratsional tafakkur yangi g'oyalar va innavatsion qarashlarning paydo bo'lishiga yordam beradi.

Hozirgi davrda sun'iy intellekt, nanotexnologiya, biotexnologiya kabi murakkab sohalarning rivojlanishi olimlardan nafaqat qat'iy mantiqiy fikrlashni,

balki kreativ yondashuvni ham talab qilmoqda. Innovatsion g'oyalar ko'pincha standart tafakkur chegarasidan chiqish orqali yuzaga keladi. Pedagogika, psixologiya hamda ijtimoiy fanlarda ham irratsional omillarning roli katta. Chunki inson tafakkuri, hissiyotlari va ruhiy holatini faqat mantiq bilan to'liq tushuntirib bo'lmaydi. Shu sababli ilmiy tadqiqotlarda kompleks yondashuv muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Ilmiy tadqiqotda ratsionallik, ilmiy tadqiqotda ratsionallik va irratsionallik bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim omillardir. Ratsionallik ilmiy bilimlarning aniqligi, izchilligi va ishonchliligini ta'minlasa, irratsionallik va innovatsion tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Ilm-fan taraqqiyoti aynan ushbu ikki yondashuvning uyg'unligi orqali rivojlanadi.

Zamonaviy tadqiqotchi nafaqat mantiqiy fikrlashga, balki intuisiya va ijodiy tafakkurga ham ega bo'lishi zarur. Bu esa ilmiy yangiliklar yaratish hamda jamiyat taraqqiyotini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M. Falsafa asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
2. Baratov Sh. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.
3. Fayzullayev O. Falsafa va fan metodologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2018.
4. G'ulomov S. Bilish nazariyasi va mantiq. – Toshkent: Universitet, 2019.
5. Jo'rayev R. Zamonaviy ilmiy tadqiqot metodlari. – Toshkent: Tafakkur, 2020.
6. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

8. Musurmonova O. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2016.
9. Nazarov Q. Falsafa asoslari. – Toshkent: Sharq, 2015.
10. Rasulov A. Ilmiy bilish falsafasi. – Toshkent: Universitet, 2019.
11. To'xtayev N. Mantiq va ilmiy tafakkur. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
12. Tulenov J. Falsafiy tafakkur taraqqiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
13. Xayrullayev M. Mantiq. – Toshkent: O'qituvchi, 2014.
14. Yo'ldoshev S. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan, 2020.
15. Zunnunov A. Pedagogika nazariyasi. – Toshkent: Aloqachi, 2016.